



TAKAFFUL SUG'URTA VA UNING SUG'URTA BOZORIDAGI O'RNI

Baratova Dinora Alisherovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

email: gulzoda20@mail.ru

ARTICLE INFORMATION	ABSTRACT
Volume: 1 Issue: 10 DOI: https://doi.org/10.55439/INSURE/vol1_iss10/a3	Ushbu maqolada sug'urtaning islomiy shakli, takafful haqida so'z yuritilgan. Maqolada takaffulning xususiyatlari, amalga oshirish qoidalari, meyoriy xujjatlari haqida ma'lumot berilgan bo'lib, bu o'quvchining takaffulning asosiy tushunchasi haqida tasavvurga ega bo'lishiga olib keladi. Shu bilan birga maqola takaffulning jaxonda tutgan o'rni tahlil qilinib, tahlil asosida xulasa va takliflar berib o'tilgan.
KEYWORDS	<i>islom sug'urtasi, takafful, jahon bozori, vaqf, sug'urta bozori, takfful bozori.</i>

Kirish (Introduction/Введение)

Islom sug'urtasi turli shakllarda amalga oshirilishi mumkin, jumladan takaful, vaqf, o'zaro yordam jamg'armalari va o'zaro sug'urta ko'rinishida. Misol uchun, "takaful" arabcha so'z bo'lib "o'zaro kafolatlash" ma'nosini bildiradi va O'zbekiston qonunchiligida ko'zda tutilgan, fuqaro va tashkilotlar tomonidan muayyan pul mablag'larini birlashtirish yo'li bilan, amalga oshirilishi mumkin bo'lgan ikki tomonlama sug'urtaga mos keladi. Ushbu sug'urta turi ayrim mamlakatlarda vaqf ko'rinishida ham qo'llanib kelinmoqda. Bundan, moliyaviy mahsulot yoki tizimning nafaqat nomiga balki uning shakli va tamoyillariga ham e'tibor qaratish muhimligini anglashimiz mumkin. O'zbekistonda sug'urta bozorini rivojlantirish va yangi sug'urta mahsulotlari taklifini oshirish bo'yicha keng ko'lami islohotlarning amalga oshirilishi bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri bo'lib qolmoqda. 2023-yil 5-sentyabr kuni tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan 2023-yildagi ochiq muloqotida belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-292 sonli Qarorda islom moliyasini joriy qilish maqsadida islomiy mahsulotlar, xizmatlar ko'rsatish faoliyatining huquqiy asosini yaratish, bunday tashkilotlarni soliqqa tortishning o'ziga xos xususiyatlarini belgilashni nazarda tutuvchi qonunchilik hujjatlarini ishlab chiqish vazifasi qo'yilgani ham bejiz emas.[1].

Qolaversa, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 12-sentyabrda PF-158 sonli farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston-2030 strategiyasida iqtisodiyot tarmoqlarini, jumladan ijtimoiy sug'urta tizimini takomillashtirish va qishloq xo'jaligi mahsulotlari handa chorvani sug'urta qilish mexanizmlarini ishlab chiqishga alohida urg'u beriladi[2]. Bundan tashqari 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida ham ijtimoiy sug'urta tizimini yaratish, ijtimoiy sug'urta jamg'armasini tashkil etish, qishloq xo'jaligida sug'urtalashning yangi mexanizmlarini joriy etish vazifalarining belgilanishi O'zbekiston sug'urta bozorida muqobil instrumentlarni joriy qilishni, xususan, takoful sug'urtasini joriy etish va rivojlantirish masalalari kun tartibiga chiqaradi.

Tadqiqotning yana bir dolzarbligi shundan iboratki, milliy sug'urta bozorida takofulni rivojlantirishning imkoniyatlari va muammolari, uning an'anaviy sug'urta bozori bilan raqobatda to'lovga layoqatlilik bo'yicha qanchalik nisbiy afzallikka ega ekanligi yoki emasligi o'rganilmagan.

O'zbekistonda keyingi yillarda islom moliyasiga qiziqish tobora ortib borayotgani sezilsa-da, takoful sug'urtasini rivojlantirishning amaliy mexanizmlari mustahkamlanmagan, bunday xizmatlarni ko'rsatuvchi

juda kam sonli operatorlar yirik sug'urta kompaniyalari qarshisida o'zlarining mahsulotlarini keng ommaga yetkazishda hamda aholi orasida taniqlilik darajasini oshirishda qiyinchilikka duch kelmoqda. Vaholanki, takoful sug'urtasi rivojlangan musulmon mamlakatlarda o'zining moliyaviy barqarorligi va raqobatbardoshligini namoyon etmoqda. Jumladan, jahon moliya bozorida takoful sohasi sug'urta hissallari summasi(muqobil ravishda, sug'urta premiumlari hajmi) 2022-yilda avvalgi yilga nisbatan 16,1% ga o'sib, jami 30 milliard AQSH dollaridan oshdi. Oxirgi 12 yil mobaynida, ya'ni 2011-2022 yillar oralig'ida ushbu soha yiliga o'rtacha 6.4% dan o'sib borgan. [3]

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda ushbu dissertatsiya yuqorida sanab o'tilgan qonunlardagi vazifalarni amalga oshirishga, shuningdek, sug'urta bozorida yangi muqobil instrumentlarni joriy etish imkoniyatlarini iqtisodiy jihatdan baholashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili (Обзор литературы/Literature review).

Taniqli olim D.Kamminsnig tadqiqotlari takoful kompaniyalarining to'lovga layoqatlilikini tahlil qilishga bag'ishlangan bo'lib, unda Altman tomonidan ishlab chiqilgan Z-baho ko'rsatkichi mezon sifatida olingan va unga ta'sir qiluvchi o'ndan ortiq omillar baholangan. Ammo bu ishda takoful tashkilotlarining an'anaviy sug'urta tashkilotlaridan moliyaviy barqarorlik jihatidan sezilarli farqi mavjudligi borasidagi masalaga to'xtalmagan.

O'zbek iqtisodchilaridan X.Xasanov o'z ishlarida takoful tushunchasiga berilgan ta'riflarning qiyosiy tahlilini amalga oshirib, unda xalqaro islomiy moliya tashkilotlari, regulyatorlar hamda xorijiy olimlarning fikrlarini keltirib o'tgan va o'z ta'rifini shakllantirgan.


Ammo mazkur olimlarning ilmiy ishlarida takoful faoliyatini yuritish bilan bog'liq muammolarga ko'proq nazariy yondashilgan bo'lib, jahondagi takoful operatorlarning moliyaviy ko'rsatkichlari o'rnatidagi munosabatlar, shuningdek, takoful mahsulotlarini milliy sug'urta bozoriga integratsiya qilishning amaliy muammolari yetarli darajada o'rganilmagan. Shu sababli riskni bo'lishishning yangi instrumentlarini joriy etishda va sug'urta bozorida raqobatni oshirish maqsadida O'zbekistonda takofulni rivojlantirish bilan bog'liq tadqiqotlarni amalga oshirish bugungi kunda dolzarb hisoblanadi.

Tahlil va natijalar (Анализ и результаты. Analysis and results).

Jahon moliya bozorida takoful sohasi sug'urta hissallari summasi(muqobil ravishda, sug'urta premiumlari hajmi) 2022-yilda avvalgi yilga nisbatan 16,1% ga o'sib, jami 30 milliard AQSH dollaridan oshdi. 2021-yilda esa o'sish ko'rsatkichi 5.4% ni tashkil qilgan edi. Oxirgi

12 yil mobaynida, ya'ni 2011-2022 yillar oralig'ida ushbu soha yiliga o'rtacha 6.4% dan o'sib borgan (1-rasm). Bunda oxirgi yillarda global takoful bozorining qariyb 44 foizini tashkil qiluvchi Saudiya Arabistoni sug'urta bozoridagi normativ o'zgarishlar tufayli takoful tashkilotlarining moliyaviy ko'rsatkichlari yaxshilangani muhim o'rin tutdi. IFSB ning prognozlariga ko'ra, takoful industriyasining rivojlanishi ko'p mamlakatlarda barqaror bo'lib qolishi hamda takoful mahsulotlari diversifikatsiyasi ortishi kutilmoqda, boisi COVID-19 pandemiyasidan keyingi davrda aholining risk borasida kutilmalari va ijtimoiy kayfiyat o'zgargan, shuningdek, ko'plab yurisdiksiyalarda majburiy tibbiy sug'urtaning joriy etilishi takoful bozorida ta'sir etmay qolmaydi [4]

Shunga qaramay, keyingi yillar uchun takoful sug'urtasining rivojlanishiga salbiy ta'sir etishi mumkin bo'lgan tahdidlar ham mavjud. Makroiqtisodiy nomutanosibliklar, inflyatsion bosim, moliyaviy bozorlarning volatilligi va valyuta devalvatsiyasi shular jumlasidandir.



1-rasm. 2011-2022 yillar oralig'ida jahon moliya bozorida takofulga kiritilgan hissalar hajmi, mlrd dollar [5]

2-rasmida esa takofulga kiritilgan hissalarining mamlakat sug'urta bozoridagi jami sug'urta mukofotlaridagi ulushi ko'rsatilgan. E'tibor berish bo'lgan nuqta shuki, bunda takofulning ulushi 1 foizdan yuqori bo'lgan mamlakatlar inobatga olingan. Ko'rinish turibdiki, uchta mamlakat, ya'ni Saudiya Arabistoni, Eron va Sudanda to'liq islomiy sug'urta tizimi amal qiladi. Ammo har uchalasining ham o'ziga xos jihatlari yetarlicha. Boshqa mamlakatlarda esa takoful tizimi an'anaviy sug'urta tizimi bilan parallel ravishda faoliyat yuritib kelmogda. Global takoful hissalarining 95 fozini tashkil qiluvchi eng yirik mamlakatlar esa Saudiya Arabistoni, Eron, Sudan, Brunej, Malayziya va Indoneziya hisoblanadi. Global takoful bozorida umumiy takofulning ulushi 82,6 foizni tashkil qiladi va 22,6 milliard dollarning hissaga ega. [6]


Takofuldagi zamonaviy tendentsiyalarni uchta asosiy nuqtai nazardan ko'rish mumkin: tartibga solish va boshqaruv, mahsulotlar va islom moliyasi talablarga rioya qilish. Birinchidan, tartibga solish va boshqaruv nuqtai nazaridan, turli yurisdiksiyalarda sezilarli o'zgarishlar ro'y berdi, bu esa turli boshqaruv modellarining paydo bo'lishiga olib keldi. Xalqaro tartibga solish standartlari IFSB va AAOIFI tomonidan ishlab chiqiladi. [8]

IFSB Takaful sanoatini tartibga soluvchi to'rtta standart va boshqaruv tamoyillarini nashr etdi. Bularga boshqaruv tizimi, biznes yuritish, stress testlari va likvidlikni boshqarish bo'yicha standartlar kiradi (IFSB, 2013). Dunyo bo'ylab ko'plab yurisdiksiyalalar, xususan, IFSB a'zolari, boshqalar qatorida yuqoridagi standartlarni qabul qildilar. [9]

Xulosa (Заключение/Conclusion). Xulosa qilib shuni aytish kerakki, takful sug'urtasi rivojlanishi uchun quyidagi omillar o'z ta'sirini ko'rsatadi.

References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 4-sentabrda PQ-292-son qaroriga 1-ilova: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan 2023-yildagi ochiq muloqotida belgilangan vazifalarni amalga oshirish bo'yicha "YO'L XARITASI" 32-band
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.09.2023 yildagi PF-158-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston — 2030" strategiyasi.
3. Islamic Financial Services Stability Report 2023, IFSB, Kuala Lumpur, p.74
4. Islamic Financial Services Industry Development Ten-year Framework and Strategies: A Final Review. Islamic Financial Services Board, 2023, Kuala Lumpur.
5. B.Abdurasulov /O'zbekiston sug'urta bozorida takofulni rivojlantirish imkoniyatlari mavzusidagi : Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasiga- Avtoreferat
6. Қўлдошев, Қ. . (2023). Ислам мамлакатларида такафул сугурта: шаклланиши ва ривожланиши, ўзбекистонда жорий этиш масалалари. *Страховой рынок Узбекистана*, 1(3), 1–6. https://doi.org/10.55439/INS/vol1_iss3/38
7. Қўлдошев, Қ. (2024). Хаёт сугуртаси: давлат ва фуқаролар учун аҳамияти ҳамда ўзбекистонда ривожлантириш билан боғлиқ муаммолар. *Страховой рынок Узбекистана*, 1(7), 4–6. https://doi.org/10.55439/INS/vol1_iss7/108



2-rasm. Takofulning milliy sug'urta bozorlardagi ulushi, foizlarda [7]

1. O'zbekiston sug'urta bozori mamlakat iqtisodiyoti o'sib borayotgani va islomiy moliya bo'yicha xabardorlikning ortib borayotganini hisobga olgan holda takofulni rivojlantirish uchun katta imkoniyatlarni taqdim etadi. Bu, ayniqsa, islomiy moliya tamoyillariga demografik va madaniy muvofiqlikni hisobga olgan holda, O'zbekistonda Takafulning istiqbolli kelajagini ko'rsatadi.

2. O'zbekistondagi amaldagi me'yoriy-huquqiy baza takoful uchun qulayroq shaklga asta-sekin kirib bormoqda. Biroq, mintaqada Takaful salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarish uchun islomiy moliyaga moslashtirilgan aniqroq ko'rsatmalar va qo'llab-quvvatlovchi siyosatlar ehtiyoj bor.

3. O'zbekistonlik iste'molchilar orasida "Takoful" mahsulotlariga bo'lgan qiziqish ortib bormoqda, bu ularning islom tamoyillariga muvofiqligi va e'tiqodiy afzalliklarga bog'liq. Bu iste'molchining tegishli xabardorligi va operatorlarning samarali marketingi mavjud bo'lsa, "Takaful" xizmatlarini joriy etish va kengaytirish uchun bozor tayyor ekanligini ko'rsatadi.

4. Takaful operatorlari O'zbekiston sug'urta bozorida farqlanish uchun risklarni taqsimlash va axloqiy investitsiya kabi noyob xususiyatlardan foydalanishlari mumkin. Bu nafaqat muqobil sug'urta mahsulotlarni qidirayotganlarni, balki axloqiy va ijtimoiy mas'uliyatli moliyaviy xizmatlarga qiziqqan mijozlarni ham jalb qilishi mumkin.

5. Imkoniyatlarga qaramay, jiddiy muammolar mavjud, jumladan, "Takaful" haqida jamoatchilik tushunchasining cheklanganligi, islomiy moliya bo'yicha o'qitilgan mutaxassislar ehtiyoj va an'anaviy sug'urta kompaniyalari raqobati. Ushbu muammolarni hal qilish "Takaful"ning O'zbekiston sug'urta bozoriga muvaffaqiyatli integratsiyalashuvi uchun muhim ahamiyatga ega.

6. Iste'molchilarning xohish-istaklarini chuqur o'rganish va Takaful kompaniyalarining bozorga samarali kirib borishi uchun strategiyalarni ishlab chiqish uchun keyingi tadqiqotlar tavsiya etiladi. Bundan tashqari, Takafulga ixtisoslashgan me'yoriy-huquqiy baza, mahsulot innovatsiyasi va inson kapitali sohalarida uzluksiz rivojlanish zarur.

7. Takafulning O'zbekistonda joriy etilishi va o'sishi kengroq iqtisodiy va ijtimoiy ta'sir ko'rsatishi mumkin, jumladan, moliyaviy inklyuzivlik, axloqiy investitsiyalar va kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash mintaqada barqaror va adolatli iqtisodiy rivojlanishning kengroq maqsadlariga mos keladi. [10]

-
8. Kucharov , M. . (2024). O'zbekiston sug'urta bozorining 2016-2023-yillar davomidagi rivojlanish tendensiyalari . *Страховой рынок Узбекистана*, 1(7), 11–13. https://doi.org/10.55439/INS/vol1_iss7/110
9. Баратова , Д. (2024). Хаёт сугуртасининг аҳоли ижтимоий ҳимоясини таъминлашдаги ўрни. *Страховой рынок Узбекистана*, 1(7), 14–16. https://doi.org/10.55439/INS/vol1_iss7/111
- Baratova , D. ., & Olmosova , M. . (2024). O'zbekistonda aholi mol-mulkini sug'urtalashning hozirgi holati, muammolar va rivojlantirish istiqbollari. *Страховой рынок Узбекистана*, 1(7), 94–97. https://doi.org/10.55439/INS/vol1_iss7/135..